

**BUYUK NE'MATLARDAN BIRI SHE'RIYATDIR****Eldor Ilhom o'g'li Mustafoyev***Toshkent davlat transport universiteti***A R T I C L E I N F O.****Annotation****Keywords:**

Ozarbayjon, ko'p qiralari, qadr, iste'dod, tarjimon, mutafakkir, she'riyat, doston, e'zozlash, realistik bayt.

Bizning buyuk shoirimiz Maqsud Shayxzoda hayoti davomida faqat she'rlar, adabiyotshunoslik bilan emas, ko'plab jahon adabiyotlarini o'zbek tiliga tarjima qilinganligi bilan ham ko'p qirrali shoir deb ataymiz.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Aslida qondosh Ozarboyjon naslidan bo'lib, keyinchalik o'zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908-yilda Ozarboyjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug'ilgan. Otasi Ma'sumbek elu-yurtda katta obro'ga ega shifokor edi.

Maqsud Shayxzoda Oqtoshda ibridoiy maktabni bitirgach, 1921 yili Boku dorilmualliminiga o'qishga kiradi va uni tugatgach Dog'istonning Darband, Bo'ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926 yili Adhem Fayziy tashkilotiga a'zo etilgan «Milliy firqa» tashkilotiga a'zo bo'lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928 yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho'ro hukumati Shayxzodani O'zbekistonda ham ta'qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo'q.

XX asr o'zbek she'riyati rivojida Shayxzodaning o'rni katta. Rang barang shakl va mazmun, ko'tarinki ruh, o'ktam pafos bilan sug'orilgan she'rlaridagi quyma obrazlar, ramziylik, so'zlardagi jarangdorlik, musiqiy salobat shoir asarlariga ajib badiiy yaxlitlik baxsh etadi, o'quvchi qalbida shularga monand hissiyotlar to'lqinini uyg'otadi.

Uning «Toshkentnoma» nomli lirk falsafiy dostoniga munosabatda ham shu nuqtayi nazardan kelib chiqish to'g'ri bo'ladi. Shoining bu fikrlari o'zining aksar she'rlari uchun ham ochqich bo'la oladi.

Maqsud Shayxzoda fikricha va iqraricha, hayotdagি buyuk ne'matlardan biri she'riyat, tengsiz go'zalliklardan biri she'rdir. Shayxzoda «She'r chin go'zallik singlisi ekan» nomli she'rida butun ijodi bo'ylab porlagan – she'riyatning insonga cheksiz go'zalliklar, ruhiy tovlanish va evrilishlar in'om etguvchi mohiyatini kuylaydi, uning yangi-yangi qirralarini ochishga intiladi.

She'r sarlavhasidagi fikr, bir jihatdan, yangilik emasdek. Unga yaqin qarashlarni Navoiy, Pushkin, Yesenin, Cho'lpion ijodida ham uchratamiz. Biroq she'riyatning yozilmagan qoidalariga ko'ra, asosiy masala, asarga turtki bo'lgan fikr va ifodalanayotgan ma'nodagina emas, balki ularning badiiy namoyon etilish tarzi, o'quvchi ruhiyatida yangi to'lqinli tuyg'ularni uyg'ota bilish san'atidir. Shayxzodaning «She'r chin go'zallik singlisi ekan» asari shu jihatlari bilan qimmatli.

Asarda she'riyat, inson tabiatini va umrini yashnatib turuvchi ulug' xosiyatlardan biri sifatida ulug'lanadi. She'r bilan oshno bo'lisl, muallif fikricha, inson fe'l-atvorini, quvvayi ziyosini, ma'naviyatini sermazmun qiladi, ruhiyati barkamol bo'lishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Har kimki u bilan sevishsa agar –

Husniga chiroylar qo'shilar aynan.

Bu chiroy nainki surat, ayni vaqtida siyrat chiroyi hamdir. O'quvchi bu misralarning hayotiy, jonli, purhikmat ekaniga sinfdoshlar, uzoq-yaqin hamsuhbat do'stlar, tanish-bilishlar misolida ishonch hosil qilishi turgan gap. She'riyat ixlosmandi umr ma'nosidagi achchiq haqiqat-u, oniy nazokatlarni chuqr tushunishi, tiniqroq his etishi, go'zal ma'nolar va tuyg'ulardan mutaassir bo'lishi hamda shular ta'siridagi o'zining kishini o'ziga jalb etib turmaydimi?

Bu realistik bayt chuqr ma'nolidir. Chindan ham, atrofimizdag'i tanish- bilish, yaqinlarimizning ayrim bevaqt vafotiga ba'zi hollarda o'zimiz sezib-sezmay yo'l qo'ygan bemehrlik, oqibatsizlik, beparvolik, nomardlik, sovuqqonlik ham sabab bo'lmaydimi? Bu – she'rning umumiy ruhiyatidan, badiiyatidan kelib chiqadigan saboq. Asarning tarixiyligiga kelganda, bu fikr lirik qahramonga asos bo'lgan tarixiy shaxsga nisbatan o'z davrida ko'rsatilgan ayrim adolatsizliklarga ishoradir. Bu fikrni o'tgan asrning 60-yillari o'rtasida aytish oson emas edi. Lekin shoir Shayxzoda bu poetik fikrni badiiy yo'sinda chiroyli va ta'sirchan ifodalaydi Badiiy haqiqat bilan bir qatorda tarixiy xaqiqatni ham aks ettirishning yo'lini topdi.

Nizomiy Ganjaviy, SHota Rustaveli, Shekspir, Bobur, Bayron, Pushkin ijodiga bag'ishlangan maqolalarda bu san'atkorlarning jahon adabiyoti ravnaqidagi o'rni o'rganildi. Shayxzodaning, ayniqsa, Alisher Navoiy poetik mahoratini tadbiq etgan ishlari ilmiy chuqurligi, go'zalligi bilan ajralib turadi. Buyuk bobokolonimiz, shoir va mutafakkir mir Alisher Navoiyga bag'ishlab kecha va tadbirlar o'tkazganimizda biz ul zotni "G'azal mulkining sultoni" deb ataymiz. Mana shu iborani ilk bor qo'llagan shoir bu Maqsud Shayxzodadir.

Shayxzoda «tole' doim erkalamaganiga» qaramay, umrining oxiriga qadar o'zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko'rsatdi va O'zbekiston uning ikkinchi vatani bo'lib qoldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://library.ziyonet.uz>
2. Naim Karimning "Maqsud Shayxzoda" asari
3. <https://arboblar.uz>
4. Khodjayeva N. S., Mamurova D. I., Nafisa A. IMPORTANCE IN PEDAGOGICAL TECHNIQUES AND EDUCATIONAL ACTIVITY //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. CONGRESS. – C. 5-5.
5. Mamurova D. I. Application of Advanced Information Technologies of Training at Drafting Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 6.
6. Islamovna M. D., Gulhumor M. PRINCIPLE OF TEACHING DRAFT GEOMETRY AND COMPUTER GRAPHICS //World Bulletin of Social Sciences. – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 30-31
7. Мамурова Ф. И., Мамурова Д. И. КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИ ФАНИНИ ЎҚИТИШ ҲОЛАТИ //TULAGANOV AA. – С. 145.
8. SI Ibadullaeva. PAVEL BENKOV'S LEGACY AT THE BUKHARA MUSEUM OF FINE ARTS. International Engineering Journal For Research & ..., 2020.
9. Mamurova D. I., Xalimova M., Bakhtiyorova G. THE IMPORTANCE OF THEIR RHYTHMIC SEQUENCE IN EMBROIDERY TECHNIQUES AND COLOR SELECTION IN

EMBROIDERY //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – №. ICIPPS21. – С. 5-5.

10. Mamurova, F. T., Abdullayeva, N. K., & Mallaboyev, N. (2019). USING THE «ASSESSMENT» METHOD IN ASSESSING STUDENTS KNOWLEDGE. *Theoretical & Applied Science*, (11), 80-83.
11. Mamurova, F. I., & Mustafoev, E. (2021, October). Aksonometrik Proyeksiyalarning Asosiy Teoremasi. Dimmetrik Aksonometriya Qurish. In " *ONLINE-CONFERENCES*" *PLATFORM* (pp. 100-103).
12. Mamurova, F. I., & ugli Mustafayev, E. I. (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. *Conferencious Online*, 16-18.
13. Mamurova, F. I., & oglu Akmalov, J. O. (2021). ORGANIZATION OF GEODESIC WORK. STATE GEODESIC NETWORKS. *Conferencious Online*, 21-23.
14. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In *E-Conference Globe* (pp. 176-178).
15. Mamurova, F. I. (2021). Factors for Forming the Professional Competence of Building Engineers in the Context of Information Education. *EFFLATOUNIA-Multidisciplinary Journal*, 5(2).
16. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2021). Graphic Information Processing Technology and its Importance. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 10, 1-4.
17. Islomovna M. F. et al. DESIGNING THE METHODICAL SYSTEM OF THE TEACHING PROCESS OF COMPUTER GRAPHICS FOR THE SPECIALTY OF ENGINEER-BUILDER //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – Т. 27. – №. 4
18. Азимова, М. Б., & Ибадуллаева, Ш. И. (2017). XIX аср охири-XX аср бошларида Бухоро аҳоли турар жойлариинтеръер безаги (Файзулла Хўжаев уй-музейи мисолида). *Евразийский научный журнал*, (2).
19. Muzaferovna, A. N., Umidullayevna, S. S., & Ilhamovna, I. (2020). Harmonization of types of fabric art processing to students. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 176-184.
20. Умедов, Шахзод, and Нафиса Авлиякулова. "КУЛЬТУРА И ПСИХОЛОГИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ." *Современная педагогика и психология: проблемы и перспективы*. 2020.
21. Avliyakulova, Nafisa. "БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАСВИРИЙ-ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИЛЛАРИ." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz) 8.8 (2021).
22. Muzaferovaa, A. N. (2021, February). FORMS OF PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR VISUAL AND CREATIVE ACTIVITIES. In *Euro-Asia Conferences* (pp. 119-123).
23. Yunusov, R., Ganieva, F. A., Artikova, M. I., & Atayeva, Z. A. (2022). THE DEPENDENCE OF THE GROWTH, DEVELOPMENT AND PRODUCTIVITY OF APPLE TREES ON THE FACTORS OF CARE ON LOW-SALINE SOILS OF THE BUKHARA REGION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 773-781.
24. Ganieva, F. (2021). Influence Of Cotton Cultivation Techniques In Bukhara Region On Reduction Of Damage To Plants By Turnip Moth. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 6(6).
25. Сулеймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (3 (59)), 53-56.